

BEVOSITA SOLIQLAR HISOBINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.

i.f.f.d., dos. Yangiboyev Husniddin Abdumajitovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Maqolada Respublikamizda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimiga doir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi PQ-4611-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida fikrlar yuritilgan. Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlariga o'tish sharoitida bevosita soliqlar bo'yicha soliq majburiyatlari hisobini takomillashtirish masalalari hamda ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, moliyaviy hisobotning milliy standartlari, buxgalteriya hisobi, balans qiymati, korxonalar, moliyaviy hisobot, soliq hisoboti, bevosita soliqlar, soliq solinadigan foyda, soliq bazasi, foyda soliqlar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ПРЯМОГО НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ.

Д.э.н., доц. Янгибоев Хусниддин Абдумажитович
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация: В статье рассматривается проводимая в нашей республике работа по обеспечению реализации задач, определенных в постановлении Президента Республики Узбекистан от 24 февраля 2020 года № ПП-4611 «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности» по системе бухгалтерского учета и финансовой отчетности. Сформулированы вопросы совершенствования учета налоговых обязательств по прямым налогам в условиях перехода на международные стандарты финансовой отчетности и научные выводы.

Ключевые слова: Международные стандарты финансовой отчетности, национальные стандарты финансовой отчетности, бухгалтерский учет, балансовая стоимость, предприятия, финансовая отчетность, налоговая отчетность, прямые налоги, налогооблагаемая прибыль, налоговая база, налоги на прибыль.

IMPROVEMENT OF DIRECT TAX ACCOUNTING ON THE BASIS OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS.

**Doctor of Economics, Assoc. Prof. Yangiboyev Husniddin
Abdumajitovich**

Tashkent State University of Economics

Annotation: *The article discusses the work being carried out in our republic to ensure the implementation of the tasks set out in the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-4611 dated February 24, 2020 "On Additional Measures for the Transition to International Financial Reporting Standards" on the accounting and financial reporting system. Issues of improving the accounting of tax liabilities for direct taxes in the context of the transition to international financial reporting standards and scientific conclusions are formulated.*

Keywords: *International standards of financial reporting, national standards of financial reporting, accounting, book value, enterprises, financial reporting, tax reporting, direct taxes, taxable profit, tax base, profit taxes.*

1. Kirish.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish turli tarmoqlardagi korxonalarda boshqaruv tizimini yangi talablarga moslashtirish - ushbu sub'ektlarda yuritilayotgan buxgalteriya hisobi tartib qoidalariga bevosita bog'liqdir. "Buxgalteriya hisobi barcha xo'jalik operatsiyalarini yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo'li bilan buxgalteriya axborotlarini yig'ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotlarni tuzishdan iborat" [2016]. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar korxona, investorlar yoki mulkdorlar faoliyati to'g'risida tizimlashtirilgan ma'lumotlarni talab qiladilar. Korxonalarning tashqi savdo aloqalarini kengaytirish va to'g'ridan — to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish sharoitida moliyaviy hisobotni rivojlantirishning ichki amaliyotini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (keyingi o'rinlarda — MHXS) moslashtirish masalalari alohida dolzarbdir. MHXS jahon mamlakatlarida qo'llanilayotgan buxgalteriya hisobining xalqaro etaloni hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish, korxona va tashkilotlarning iqtisodiy, mulkiy va moliyaviy holatini, ularning o'tgan davrlardagi moliyaviy natijalarini qiyosiy o'rganish natijasida ob'ektiv baholash orqali kelgusidagi faoliyatni kengaytirish, tashqi moliyaviy manbalarni izlab topish, xalqaro moliyaviy institutlardan kapital jalb qilish imkonini beradi. Hozirgi paytda mamlakat iqtisodiyotida ro'y berayotgan raqamli iqtisodiyotning shakllanishidagi murakkab jarayonlar buxgalter-iqtisodchilarning nazariy va amaliy merosini chuqur qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. O'zbekistonda MHXSning joriy etilishi mahalliy kompaniyalarga moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini oshirish orqali xorijiy investorlarning ishonchini oshirish imkonini beradi. Shu munosabat bilan ichki hisob tizimini MHXSga mos keltirish zarurati tug'ildi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Bugungi kunda respublikamizda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiqlashtirish bo'yicha amalga oshirilyotgan ulkan ishlarning navbatdagi bosqichiga o'tildi desak bo'ladi. Sababi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi MHXSni joriy etish bo'yicha vakolatli organ sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosini to'liq ta'minlab kelmoqda. Xususan, o'tgan vaqt mobaynida vazirlik tomonidan Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari Fondi bilan 2020 yil 11 noyabrda MHXS hujjatlarini davlat tiliga tarjima qilish va boshqa tillarda foydalanish huquqini olishni nazarda tutuvchi bitim imzolangan edi. Mazkur bitimning amaliy ijrosi sifatida Vazirlik tomonidan "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi" bilan birga jami 41 ta xalqaro standartlar (MHXS), 2 ta standartga ShDQ (SIC) sharhi hamda 17 ta standartga MHXSShQ (IFRIC) sharhi davlat tiliga tarjima qilinib amaliyotda qo'llash uchun tavsiya etildi (MHXS bo'yicha ekspertlar guruhi xulosasi bo'yicha). Natijada, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 avgustda 507-son qarori bilan tasdiqlangan "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risida"gi nizom MHXS Fondi tomonidan qabul qilingan MHXS va unga tushuntirishlar matnini O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun tan olish tartibini belgilab berdi.

1983 yildan Xalqaro buxgalterlar federatsiyasiga a'zo bo'lgan hamma buxgalterlar kasbiy tashkilotlari HMHSK ga ham a'zo bo'lishdi. 2001 yilga qadar MHXSK tarkibiga Buxgalterlar xalqaro federatsiyasiga a'zo bo'lgan barcha buxgalter va auditorlar MHXSKga 2 million buxgalterning vakili hisoblangan 112 mamlakatning 153 a'zosi kirgan edi.

O'zbekistonda MHXSning joriy etilishi mahalliy kompaniyalarga moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini oshirish orqali xorijiy investorlarning ishonchini oshirish imkonini beradi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha bir necha mutaxassislar o'z fikr va mulohazalarni bildirib o'tdi. Iqtisodchi olim S.Tashnazarov ta'kidlaganidek, dunyo bozoriga chiqish, xalqaro kredit olish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun moliyaviy hisobotni MHXSlari bo'yicha tuzish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzayotgan kompaniyalar soni oshib bormoqda. Chunki, moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirishga erishish faqat MHXSlarga o'tish orqali amalga oshirilishi mumkin bo'ladi. Shu bois, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar hamda ilg'or instrumentlar va tajribalardan foydalanish kun tartibidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi[2016].

A.Karimov, I.Qo'ziev va M.Rahmonovlar quyidagilarni keltirib o'tishgan: moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish, korxona va tashkilotlarining iqtisodiy, mulkiy va moliyaviy holatini, ularning o'tgan davrdagi moliyaviy natijalarini qiyosiy o'rganish va ob'ektiv baholash orqali kelgusidagi faoliyatini kengaytirish, tashqi moliyaviy manbalarni izlab topish, xalqaro moliyaviy institutlardan kapital jalb qilish imkonini beradi [2020].

H.Irgashev va I.Axmedovlar “Respublikamizda ilk bor 2013 yildan O‘zbekiston buxlaterlari va auditlari milliy assotsiatsiyasi (O‘zBAMA) tomonidan tegishli davlat organlari va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda MHXS standartlarining o‘zbek tiliga tarjimasi amalga oshirildi. O‘zbekiston Auditorlar palatasi, Moliya vazirligi, Markaziy bank va yirik auditorlik tashkilotlari “Ko‘rib chiqish komissiyasi” a‘zolari sifatida tarjima jarayonida qatnashdi. 2013 yildan MHXS hujjatlari tarjimasi yakunlangan bo‘lsada, keyinchalik ular MHXS fondi tomonidan kiritilgan doimiy o‘zgarishlar bo‘yicha yangilab borilmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida ularga talab va ehtiyojning pastligi hamda MHXS hujjatlarining qonun hujjatlari bilan tan olinmaganligini ko‘rsatish mumkin [2020].

Iqtisodchi olim N.Rizaevning ta’kidlashicha O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va hisobotini yanada rivojlantirish quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan:

1) buxgalteriya hisobi va hisobotida tayyorlanadigan axborotlar sifatini oshirish; 2) MHXSning foydalanish infratuzilmasini yaratish; 3) buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish tizimiga o‘zgartishlar kiritish; 4) moliyaviy hisobotlarning sifat nazoratini mustahkamlash; 5) buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish va yuritish, moliyaviy hisobotlar auditi, shuningdek moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarning sezilarli darajada malakasini oshirish [2022]hisoblanadi. A.K.Ibragimovning fikricha, “Moliyaviy xisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish, ayniqsa kompaniya va firmalar moliyaviy ko‘rsatkichlariga baho berishda va ularning xalqaro miqyosda harakat qilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan ham O‘zbekiston Respublikasi korxona va xo‘jalik sub’ektlarida moliyaviy xisobotlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlash va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarining kelib chiqish tarixi va uning evolyusiyasi asosida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar bo‘yicha moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo‘llashning ishchi rejasi va amalga oshirish dasturini ishlab chiqish va uni amaliyotga qo‘llash jarayonini ko‘rib chiqish lozim” [2023].

K.B.Urazov fikriga ko‘ra MHXSga o‘tish va ularni ilk bor qo‘llash ko‘plab tashkiliy, huquqiy, moliyaviy, texnik, texnologik, shuningdek metodologik va boshqa masalalarni hal qilishni taqozo etadi. Chunonchi, ushbu masalalarning ma’lum bir ketma-ketlikda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi talab qilinadi [2024]. Shuni ta’kidlash kerakki, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) — bu kelishuv va buxgalteriya hisobining juda keng tarqalgan variantlari to‘plamidir. MHXS buxgalteriya hisobi va hisobot standartlarining o‘ziga xos usullarini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlar emas. Ular faqat maslahat xususiyatiga ega, ya’ni ular qo‘llash uchun majburiy emas. Ularning asosida milliy buxgalteriya tizimlari ma’lum ob’ektlarni hisobga olishni batafsilroq tartibga solish bilan milliy standartlarni ishlab chiqishi mumkin.

Hozirgi vaqtda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlaridan dunyo mamlakatlari tomonidan foydalanishning bir necha shakllari mavjud bo‘lib, jumladan:

1.MHXSni milliy standartlar sifatida qo'llash. Ushbu mamlakatlarga quyidagilar kiradi: Kipr, Quvayt, Latviya, Malta, Pokiston, Tailand va Xorvatiya;

2.Xalqaro standartlar bilan qamrab olinmagan masalalar uchun milliy standartlar ishlab chiqilishi sharti bilan MHXSdan milliy standartlar sifatida foydalanish. Bunday mamlakatlar sirasiga Malayziya va Yangi Gvineya kiradi;

3.MHXSdan milliy standartlar sifatida foydalanish, ammo ba'zi hollarda ularni milliy xususiyatlarga muvofiq o'zgartirish mumkin. Bular Albaniya, Bangladesh, Zambiya, Zimbabve, Keniya, Kolumbiya, Polsha, Sudan, Tailand, Urugvay, Yamayka;

4. Milliy standartlar MHXSga asoslanadi va ularga qo'shimcha tushuntirishlar beradi. Bunday davlatlar qatoriga Xitoy, Eron, Sloveniya, Tunis, Filippin kiradi;

5.Milliy standartlar MHXSga asoslangan, ammo ulardagi ba'zi milliy standartlar batafsilroq bo'lishi mumkin. Bunday standartlarni qo'llaydigan mamlakatlar Braziliya, Chexoslovakiya, Fransiya, Hindiston, Irlandiya, Litva, Mavritaniya, Meksika, Namibiya, Gollandiya, Norvegiya, Portugaliya, Singapur, Slovakiya, Janubiy Afrika, Shveysariya va Turkiya;

6.Milliy standartlar MHXSga asoslanadi, faqat har bir milliy standartni MHXS bilan taqqoslaydigan qoidalar mavjud. (Avstraliya, Gonkong, Daniya, Italiya, Yangi Zelandiya, Shvesiya, Yugoslaviya.)

Hozirda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tomonidan MHXSni qabul qilish, hech bo'lmaganda aksiyalari fond birjalarida ro'yxatga olingan kompaniyalarga nisbatan muhokama qilinmoqda. Ushbu standartlar yangi moliyaviy tuzilmalarga xalqaro miqyosda tan olingan buxgalteriya mexanizmini qo'llashga imkon beradigan tizim bo'lganligi sababli, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar ham ulardan foydalanishni boshladilar.

Hozirda jahon hamjamiyati turli tadbirkorlik sub'ektlarining buxgalteriya hisobi amaliyotiga MHXSni joriy etishga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda. Yurtimizda bunday yangiliklar qizg'in muhokamalarga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, mahalliy korxonalar uchun MHXS bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisoboti muammosi dolzarb bo'lib bormoqda. Ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar MHXSni mahalliy amaliyotga joriy etish, ya'ni uni to'ldirish uchun yangi talablar va innovatsiyalarga muvofiq muvozanatni shakllantirish masalalari ustida ishlar olib bormoqda.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotimiz metodologiyasi bo'lib, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tgan korxonalardagi bevosita soliqlar hisobi bo'yicha iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tgan korxonalarda bevosita soliqlar bo'yicha nazariy masalalar umumlashtirildi. Tadqiqot jarayonida amaliy materiallarni taqqoslash va guruhlash kabi usullardan foydalanilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

4. Tahlil va natijalar.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son qaroriga asosan aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat

banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021 yil 1 yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydi, qonun hujjatlarida MHXSga o'tishning ertaroq muddatlari nazarda tutilgan yuridik shaxslar bundan mustasnoligi belgilab qo'yilgan. Albatta, har qanday islohotning to'g'ri, o'z vaqtida yuritilishi kadrlar masalasiga, ularning sifatiga bog'liq. Shu bois, davlatimiz rahbarining qarorida MHXS bo'yicha kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Darhaqiqat, bu borada eng asosiysi, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilarni 2021 yil yakuniga qadar buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida "MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot" fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to'g'risida hujjatga yoxud "Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)", "Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ASSA)", "Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)" va "Xalqaro moliyaviy hisobot bo'yicha diplom (DipIFR)" sertifikatlaridan biriga ega kamida uch nafar mutaxassis miqdorida MHXSni sifatli qo'llash uchun yetarli bo'lgan buxgalteriya xizmati xodimlari bilan ta'minlash masalasidir.

Mulkchilik va tarmoq shaklidan qat'iy nazar, barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy hisobotlarini milliy standartlardan xalqaro standartlar asosida tuzish muhim hisoblanib, xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni xorijiy investorlar tomonidan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishi va o'zining sarmoyasini kiritish bo'yicha yengilliklar tug'diradi. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari nomlanishi 1-jadvalda keltirilgan.

1- jadval

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari¹

1.	BHXS 1 Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish
2.	BHXS 2 Zaxiralar
3.	BHXS 7 Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot
4.	BHXS 8 Hisob siyosatlar, hisoblab chiqilgan baholardagi o'zgarishlar va xatolar
5.	BHXS 10 Hisobot davridan keyingi hodisalar
6.	BHXS 11 Qurilish shartnomalari
7.	BHXS 12 Foyda soliqlari
8.	BHXS 16 Asosiy vositalar
9.	BHXS 17 Ijara
10.	BHXS 18 Odatdagi faoliyatdan olinadigan daromad
11.	BHXS 19 Xodimlarning daromadlari
12.	BHXS 20 Davlat grantlarini hisobga olish va davlat yordami to'g'risida ma'lumotlarni ochib berish
13.	BHXS 21 Valyuta kurslaridagi o'zgarishlarning ta'sirlari
14.	BHXS 23 Qarzlarni bo'yicha xarajatlar
15.	BHXS 24 O'zaro bog'liq tomonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ochib berish

¹ M.Bonham and others. Generally accepted Accounting practice under IFRS. Ernst & Young LLP, United States, 2010.- part 1. p.xxi-xxiii.

16.	BHXS 26 Pension tizimlar bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisobot
17.	BHXS 27 Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar
18.	BHXS 28 Qaram tadbirkorlik sub'ektlaridagi va qo'shma korxonalaridagi investitsiyalar
19.	BHXS 29 Giperinflyatsiyali iqtisodiyotlarda moliyaviy hisobot berish
20.	BHXS 32 Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish
21.	BHXS 33 Bir aksiyaga to'g'ri keladigan foyda
22.	BHXS 34 Oraliq moliyaviy hisobotlar
23.	BHXS 36 Aktivlarning qadrsizlanishi
24.	BHXS 37 Rezervlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar
25.	BHXS 38 Nomoddiy aktivlar
26.	BHXS 39 Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash
27.	BHXS 40 Investitsion mulk
28.	BHXS 41 Qishloq xo'jaligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020 yilning 24 avgustda "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risida" Nizom ishlab chiqilgan. Nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari fondi MHXS fondi tomonidan qabul qilingan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi hisoblanadi.

BHXS (IAS) 12 «Foyda soliqlari» Ushbu standartning maqsadi foyda soliqlarini hisobga olish tartibini belgilaydi. Foyda soliqlarini hisobga olishdagi asosiy masala bo'lib quyidagilarning joriy va kelgusi soliqlarga bo'lgan ta'siri qay tarzda hisobga olinishi kerakligi hisoblanadi. Yuridik shaxslarning moliyaviy holati to'g'risidagi hisobotda tan olinadigan aktivlar (majburiyatlar)ning balans qiymati kelgusida qoplanishi hamda moliyaviy hisobotlarida tan olingan joriy davr uchun operatsiyalar va boshqa hodisalar.

Ushbu standart, shuningdek, soliq zarari yoki soliq imtiyozlaridan foydalanmaslik natijasida kelib chiqadigan, muddati kechiktirilgan soliq aktivlarini tan olish, foyda soliqlarini moliyaviy hisobotda aks ettirish hamda foyda soliqlariga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etishni qamrab oladi. Mazkur standart tashkilotdan operatsiyalar va boshqa hodisalarning soliq oqibatlarini bunday operatsiyalar va boshqa hodisalarning o'zini qanday hisobga olgan bo'lsa, shu tarzda hisobga olishni talab qiladi. Shuning uchun, foyda yoki zarar tarkibida tan olingan operatsiyalar va boshqa hodisalar bo'yicha har qanday tegishli soliq ta'sirlari ham foyda yoki zarar tarkibida tan olinadi. Foyda yoki zarar tarkibida tan olinmagan operatsiyalar va boshqa xodisalar bo'yicha har qanday tegishli soliq ta'sirlari ham foyda yoki zarar tarkibida tan olinmaydi. Shu kabi biznes birlashuvida kechiktirilgan soliq aktivlari va majburiyatlarining tan olinishi bunday biznes birlashuvida yuzaga keladigan gudvil summasiga yoki manfaatli xarid qilishdan tan olinadigan foyda summasiga ta'sir ko'rsatadi.

Aktiv yoki majburiyatning soliq bazasi – tegishli aktiv yoki majburiyatning soliq maqsadlarida aniqlanadigan qiymatidir. Foyda solig'i xarajati (foyda solig'i daromadi) joriy foyda solig'i bo'yicha xarajatni (joriy foyda solig'i bo'yicha daromadni) hamda kechiktirilgan foyda solig'i bo'yicha xarajatni (kechiktirilgan foyda solig'i bo'yicha daromadni) qamrab oladi. Aktivning soliq bazasi – bu aktivning balans qiymati qoplanganda tashkilotga keladigan har qanday soliq solinadigan iqtisodiy naflardan soliq maqsadlarida chegiriladigan summadir. Agar bunday iqtisodiy naflarga soliq solinmasa, aktivning soliq bazasi uning balans qiymatiga teng bo'ladi. Majburiyatning soliq bazasi – majburiyatning kelgusi davrlarda ushbu majburiyat bo'yicha soliq maqsadlarida chegiriladigan har qanday qiymatga kamaytirilgan balans qiymatidir. Tushumni oldindan olish natijasida yuzaga keladigan majburiyatning soliq bazasi uning kelgusi davrlarda soliq solinmaydigan har qanday tushum qiymatiga kamaytirilgan balans qiymatidir.

BHMS va MHMS da bu ko'rinishdagi o'zgarishlarning asosiy sabablari bu moliyaviy hisobdagi nomuvofiqliklarni aniqlashdan va BHMS orqali tuzilgan hisbotlarga muhim tuzatishlar kiritishdan iborat. BHMS orqali tuzilgan hisbotlarni aksiyadorlik jamiyatlari o'zlari ham, chet eldan tashrif buyurgan mutaxassislar ko'magi orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Amaliyotda bu o'zgarishlar jarayonini ham xalqaro ham mahalliy hisob standartlari va hisobotlarini yangilash texnikasini mukkamal bilishlar orqali ikkinchi usuldan ko'proq foydalaniladi. Shu amaliyotning mutaxassislari va ko'pchilik korxonalar murojaat qiladigan malakali soha vakillari bu — auditorlik tashkilotlarining xodimlari hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Ilmiy tadqiqot natijasida shunga iqror bo'ldikki, mamlakatimizda hozirda eng avvalo aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi yuridik shaxslarni MHXS ga o'tish ishlari juda sust darajada ketmoqda hamda tashkilotlar rahbarlari va buxgalteriya hisobi xizmati xodimlari uchun MHXSni qo'llash masalalari bo'yicha mas'ul ijrochi tashkilotlar faol axborot-uslubiy qo'llab-quvvatlash ishlarini aytarli darajada amalga oshirmayabdi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistondagi buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish sohasida professional tashkilotlarning MHXS Kengashiga hamda Buxgalterlarning Xalqaro Federatsiyasiga a'zo bo'lish, ularga a'zolik badallarini to'lash, davlat darjasida hamkorlik olib borish, delegatsiyalar aloqalarni o'rnatish, O'zbekistonda MHXSlariga o'tishni xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilishiga erishish kerak. Shuningdek, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot va soliq hisobi bo'yicha MHXSlari talablariga javob beradigan o'zbek atamalar to'plamini yaratish, buning uchun esa xalqaro atamalarni qabul qilish, ularni o'zbek tiliga o'girish yoki boshqa tillarga bir xil qabul qilingan atamalarni o'zgarishsiz qabul qilish lozim. Bu jarayonni ishlab chiqmasdan MHXSlarini professional darajada o'zbek tiliga tarjima qilishga erishib bo'lmaydi. Buning uchun esa vakolatli tashkilotlar huzurida professional buxgalter va soliqqa tortishdan iborat Kengash tuzilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Малиявий ҳисоботни халқаро стандартлар асосида такомиллаштиришнинг асосий маqsади xorijiy investorlarni O‘zbekiston Respublikasiga keng jalb qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» O‘RQ-404-son Qonuni: 2016 yil 13 aprel.
2. Ташназаров С.Н. (2016) Иқтисодийни модернизациялаш шароитида молиявий ҳисобот: муаммо ва ечимлар. Монография. Т.: “Наврўз” нашриёти, 31-47-б.
3. <https://xs.uz/uzkr/post/moliyaviy-hisobotning-khalqaro-standartlari-unga-moslashish-jolida-qandaj-chora-tadbirlar-kozda-tutilgan> 13.05.2020
4. https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonda-moliyaviy-hisobotning-xalqaro-standartlariga-otishi-yangicha-yondashuv-va-imkoniyatlar_190586 30.11.2020
5. N.Rizaev.O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 8-son, 20.05.2022
6. A.K.Ibragimov. № 11 (2023): Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil jurnali
7. K.B. Urazov. Soliq va hayot jurnali.www.soliqvahayot.uz/packet/maqolalar/Maqolalar_2024_1_soni.pdf
8. Yangiboev Kh. (2021). Features of forming a direct taxation system at the modern stage. Journal of Hunan University (Natural Sciences) . Vol. 48. No. 11. (2021), pp. 1127-1135. <https://johuns.net/index.php/abstract/193.html>
9. X.Yangiboev. (2021). Ways To Collect Personal Income Tax And Reduce Tax Arrears. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI). Volume 12, Issue 9, August (2021) pp. 3770-3776 <https://www.tojq.net/index.php/journal/article/view/6382>
- 10.Х.А.Янгибоев. Бевосита солиқларнинг ҳисобини такомиллаштириш Jild 1 № 7 (2023): Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil Nashr qilingan: 30-11-2023. <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/536/517>
- 11.Х.А.Янгибоев. Рақамли иқтисодий шароитида бевосита ва билвосита солиққа тортишнинг ўзаро боғлиқлик назарияси Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 6-son Ilmiy jurnal. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/issue/view/29>
- 12.Yangiboev H.A Administration of direct taxes and its theoretical and legal basis journal of law and economics ISSN(Online): 2984-8091 SJIF Impact Factor |(2023): 5.913| Volume-6, Issue-4, Published |20-11-2023| <https://sirpublishers.org/index.php/jolae/article/view/62/86>
- 13.Yangiboev H.A Registering accounts directly with tax organizations JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETINISSN (Online):2984-6722 SJIF Impact Factor|(2023): 5.887| Volume-6, Issue-4, Published |20-11-2023| <https://sirpublishers.org/index.php/jomb/article/view/57/76>